

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### OLIY TA'LIM PEDTEXNOLOGIYALARINING PROGNOZLARI

**B.Eminchayev**

Farg'ona davlat universiteti

Aniq va tabiiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Oliy ta'limda kunduzgi, kechki, sirtqi bo'limlar faoliyat ko'rsatib kelayapti. O'quv yurtlarini bakalavrlar va magistrlar bitirib chiqishayapti. Ishlab chiqarishning kadrlarga bo'lgan extiyoji umuman bajarilayapti. Ayrim sohalarida hamon mutaxassislar yetishmaydi. Masalan, buxgalteriya hisobi(tarmoqlar kesimida), soliq, budjet, sug'urta sohalarida nomutaxassislardan foydalanib kelinayapti. Boshqaruvda ham sohadan uzoq mutaxassislardan foydalanishga Sirtqi bo'lim "Aniq va tabiiy fanlar kafedrasini"da xalqaro konferensiya 86 to'g'ri keladi. Hatto, rus tili va adabiyoti mutahassisi buxgalteriya hisobi kafedrasini boshqarayotgan hollar ham uchraydi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ichki talabni alohida o'rganib, kerakli mutaxassislarni yetarli miqdorda tayyorlash muammolariga alohida e'tibor qaratishi juda muhim. Vazirlik tarkibida fanlar bilan shug'ulanadigan boshqarmaning borligi bu muammoni chuqur o'rganish imkoniyatini beradi. Hamma o'z bilim malakasi bo'yicha faoliyat olib borsin. Vazirlikda bunday nazorat huquqi bo'lmasa, endi berish kerak. Chunki, sohasining sirlaridan behabar kishilar fermer xo'jaliklari boshlig'i vazifasida ishlab kelayotganligi sababidan har bir gektar paxta maydonidan 50 o'miga 28 sentnerdan hosil olib kelayapmiz. Ma'lumki, bundan 4 yil ilgari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'i bilan Xitoy Xalq Respublikasidan paxtachilik bo'yicha mutaxassis taklif qilindi. Maqsad har bir gektar yerdan 50 va undan ortiq hosil olayotgan Xitoy texnologiyasini O'zbekistonda joriy qilish edi. Mutaxassis Toshkent viloyatida 3 yil mehnat qildi. Natijaga erisha olmadi. Mutaxassisning aytishicha sabab, yerda emas. Yerlar juda yaxshi. Asosiy sabab, odamlar, ularning nomutaxassisliklari va mas'uliyatsizliklari bilan bog'liq. Albatta, bularning orqasida manfaatlar turadi. Fan xodimlari, ishlab chiqarishni tashkil etishning fermer xo'jaligi shakli bugungi kun talablariga javob bera oladimi degan savol ustida tadqiqotlar olib borishlariga to'g'ri keladi. Ehtimol, ekin yerlarini talabgor oilalarga 5-6 gektardan ajiratib berib, dalada nima o'stirishini davlat buyurtmasi asosida aniqlashtirish kerakdir? Tayyor mahsulotni haqiqiy tannarx ustiga 15-25 % gacha foyda qo'shib tayyorlov tashkilotlari qabul qilib olib, chuqur qayta ishlovchilarga yetkazib berishi to'g'risida o'ylab ko'rish kerakdir? Shunda, mehnat taqsimoti samarali tashkil etilib, ishlab chiqaruvchi sotish to'g'risida o'ylamay, faqat hosilni ko'paytirish ustida izlanadigan bo'larmidi? Oliy ta'lim masofadan ham beriladigan bo'lib borayapti. Buning yaxshi va kamchillik tomonlari ham bor.

O'qish, o'rganishda qo'l bilan ushlab turib kitob o'qishning ahamiyati juda katta. Darsliklar yetarli bo'lishi juda muhim. Internetdan olib, kompyuterdan chiqarib topshirilayotgan nazorat ishlari bilimga asos bo'la olmaydi. Kitobdan o'qib, qo'l bilan yozib topshirilgan nazorat ishlari samara beradi. O'qish og'ir mehnatligini talabalar tushunib olishlari muhim. Axborot texnologiyalari material va topshiriqlarni tez, oson yetkazish uchun kerak. Nazorat ishlarini "bajarib" xeymsga yuklash, keyin kelib himoya qilish kutilgan natijani bermaydi. Internetdan olib, ayrim joylarini yodlab olib, mohiyatini tushunmay, himoya qilib uch baho olib keyingi kursga ko'chishlar tayyorgarlik darajasini pasaytirib yuboradi. Professor-o'qituvchi va talaba yuzma-yuz

turib mehnat qilishlari juda muhim. Masofadan turib yuborilgan amaliyot hisobotlari ham naf keltirmaydi. Oliy o'quv yurtlari ixtisoslashgan bo'lishi ham juda muhim. 10-15ta yo'nalishli universitetlarning ham 10-15 ta ishlab chiqarish fabrikalari, sexlari, bolalar ta'lim tashkiloti, maktablari, kasalxonalari bo'lishi kerak. Universitet-3.0 konsepsiyasi amalda qo'llanilishi kerak. Bu juda katta samara berishi dunyo amaliyotida o'z tasdig'ini topgan. Talaba diplom bilan birga amaliy ish tajribasi va ozroq, o'qish uchun to'lov va shaxsiy xarajatlaridan ortgan sarmoyani olib ketadi. Qishloq xo'jalik sohalari uchun yer maydonlari o'qish manziliga yaqin bo'lishi kerak. 21-asrda aloqa va yo'l, transport muammolari qolmadi. Oliy o'quv yurtini qishloq joylarda ham tashkil etish mumkin, endi. Professoro'qituvchilar ilmiy daraja va amaliy ish tajribalariga ega bo'lishi muhim. Magistraturani o'qib tamomlagan, lekin ish tajribasiga ega bo'lmagan yoshlar oliygoh ixtiyorida zavod, fabrika, sexlarda ishlab chiqarish tajribasi olishlari mumkin. Ayrim yaxshi tashkil qilingan ishlab chiqarishlar katta daromadlar keltirishi, ilmiy tadqiqotlar, tajribasnov ishlarini samarali yo'lga qo'yishga sharoit yaratib berishi tabiiy hol. Tabiiyki, hamma o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi. Bu yaxshi va tabiiy hol. Lekin, oliy ma'lumotli fuqaro, ayniqsa ilmiy darajali rahbar boshqa sohalardan ham habardor, keng mushohidalik bo'lishi muhim. Har qanday harakat, hatto talaba yozgan tezis ham ozgina bo'lsa ham naf olib kelishi kerak. Natija bo'lishi kerak. Ta'lim sohasidagi rahbarlar Talabalarga va xodimlarga qulay sharoitlar yaratish to'g'risida o'ylaydigan, yechim topadigan mutaxassislar bo'lishlari kerak. Ming qo'shchiga bir boshchi.

Yangi O'zbekistonda imkoniyatlar hamma joyda bor. Imkoniyatni ko'ra oladigan yo'l boshchi kerak holos. Masalan, Prezidentning ko'rsatmasi bilan poytaxt Toshkent shahrining markaziy maydonlarida o'sib turgan manzarali daraxtlar orasidagi bo'sh joylarga bir tupdan past bo'yli, foydalanish uchun qulay, serdaromad tut daraxtlari ekildi. Ipakdan yigirilgan 1 gram jarrohlik ipi qancha turishini hammamiz bilamiz. Dunyo meditsinasiga tonnalab jarrohlik ipi kerakligini ham bilamiz. Shaharlarning istirohat xududlarini oliygohlar egallab olsalar bo'ladi. Xodimlar, talabalar va ko'plab mebelchi, ipak qog'oz ishlab chiqaruvchi, pillakor, ipakchi, to'quvchi, tikuvchi, eksportchilar ishda band bo'ladilar. Professoro'qituvchilar, texnik xodimlar qo'shimcha ish haqiga, talabalar daromadga ega bo'ladilar. Mamlakat YAImi ortadi. Davlat budjeti defitsitsiz bo'ladi. Ijtimoiy ximoya imkoniyatlarimiz ortadi. Ta'lim sifati ko'tariladi. Yoshlar faolligi keskin ortadi. Eng muhimi, bilim olishga intilish ortadi. Jismoniy ta'lim sohalari bo'yicha stadionlar, sport zallari bor. Bu juda yaxshi. Lekin, boshqa sohalarda uchun kompyuter xonalari yetishmaydi. Kutubxonalarda fanlar kesimidagi darsliklar yetishmaydi. Darslik va qo'llanmalar yaratishga katta e'tibor qaratish kun tartibida bo'lishi muhim. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanmalar ko'plab fanlar bo'yicha ishlab chiqilmagan. Joriy nazorat, oraliq nazorat, mustaqil ish, ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha hisobot va bitiruv malakaviy ish kabi talabalar bajarishi kerak bo'lgan yozma ishlarning 2-3 variantdagi namunalariga ham extiyojlar bor. Sirtqi ta'limda talaba mustaqil o'qib, o'rganishi uchun oldinda turgan semestr boshlanishidan kamida 4-5 oy oldin o'quv reja va oldinda turgan semestr fanlari bo'yicha topshiriqlar, hamda darsliklar bilan ta'minlangan bo'lishi muhim. Talaba semestr boshlangach kelib, darslar jadvalini ko'rish hollari deyarli barcha oliygohlarda odatiy holga aylanib ulgurdi. Sirtqi ta'limning mohiyatini unutilib qo'yganmiz. Sirtqi ta'limdagi pedagogik texnologiyani tubdan qayta ko'rib chiqish, fan o'qituvchilari tarkibini amaliyotdan kelgan talabalarga yangi bilimlar bera oladigan, amaliyotni ko'rgan professor-o'qituvchilar bilan boyitish masalasi ham kun tartibida turgan masalalardan biridir. Barcha ta'lim yo'nalishlarida ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlarini tashkil etishga yangicha yondashishga ehtiyoj bor. Bunda, tibbiyot oliy o'quv yurtlari tajribalaridan keng foydalanishga extiyoj bor. Ayrim yo'nalishlarda, asosiy mutahassislik fanlaridan boshqa fanlarga e'tiborsizlik bilan qarash hollari ham uchraydi. Masalan, madaniyat va san'at yo'nalishi kabi

sohalar uchun iqtisodiyot, soliqlar va soliqqa tortish, sug'urta ishi, buxgalteriya hisobi asoslari fanlardan o'quv adabiyotlari umuman yo'q. Shu kabi fanlardan har o'quv yilida yangi o'qituvchilar tayinlanadi. Vaholanki, har qanday yo'nalishning bitiruvchisi o'zining amaliy ish faoliyatida yuqoridagi kabi fanlardan olinadigan bilimlarga zarurat sezishadi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim olish madaniyati meyorlarini kelishib olishga ehtiyoj bor. Talaba har hil kiyimlarda, qo'lida telefon va qulog'ida eshitgich bilan, dars tugashiga 5 daqiqa qolganda, hammaning e'tiborini tortib, kirib kelmasligi kerak. Boshqa, o'qishni hoxlovchi talabalarga halaqit bergan holda telefondagi rasmlarni tomosha qilib, yonida o'tirgan talabani e'tiborini telefondagi ma'lumotlarga tortishga xarakat qilishi hollari ham uchraydi. Boshqalarga halaqit qiladi. Ayrim talabalar, juma nomoziga borishini aytib, darsdan ketishga ruxsat so'raydi. Ularga bir kunlik tafakkur, bir yillik toat-ibodatdan afzalligini tushuntirishga urinish befoyda. Oliy ta'limning madaniyati masalasini hozirgi paytda hatto vazirlik doirasida ham hal qilish mumkin bo'lmay qoldi. Extimol, Oliy Majlis bu masalani ko'rib chiqib, zarur huquqiy asos ishlab chiqishi kerakdir. Chunki, ota-onalarning dunyo qarashlari turlicha. Masalaga nuqta qo'yadigan qonuniy asosga ehtiyoj bor.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eminchayev B. O'zbekistonda zamonaviy maxsus pedagogikaning hozirgi muammolari //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 5 Part 2. – С. 115-119.
2. Eminchayev B. Development tendencies of the economy of the republic of Uzbekistan //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 751-754.
3. Sadikovich, E. B. (2023). ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(09), 318-320.
4. Eminchayev, B. S. (2023). AJDODLARIMIZ TOMONIDAN E'TIROF ETILGAN PEDAGOGIK NAZARIYALAR TUSHUNCHASI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 444-446.
5. Sadikovich, E. B. (2023). STRATEGIC PERSPECTIVES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(09), 321-324.
6. Sadikovich, E. B. (2024). Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish usullari. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 495-500.
7. Sadikovich, E. B. (2024). SHAROITLARNI YAXSHILASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 515-520.